



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3



2025-YIL APREL. NAVBATDAN TASHQARI SON



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 441 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 28-fevraldagi 333/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

ПРИНЦИПЫ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ, СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	12
Набиев Дилмурод Хамидуллаевич	
YaShIL TEXNOLOGIYALAR VA RAQAMLASH TIRISH TA'SIRIDA MEHNAT BOZORINING TRANSFORMASIYASI	19
Abduraxmanov Kalandar Xo'jaevich	
РОЛЬ ТВОРЧЕСКОГО ТРУДА В ПОВЫШЕНИИ ЕГО ЭФФЕКТИВНОСТИ	26
Гулямов Саидахор Саидахмедович, Икрамов Мурат Акрамович, Очилов Акрам Одилович	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASH MAQSADIDA "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH ZARURATI	33
O.X. Hamidov, D.Sh. Yavmutov	
ESG-ИНСТРУМЕНТАРИЙ КАК ФАКТОР УСИЛЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ	38
Татьяна Юрьевна Анопченко, Сергей Вадимович Ревунов, Роман Вадимович Ревунов	
TRANSITION OF RUSSIAN REGIONS TO A CLOSED-LOOP ECONOMY	49
Nikonov Sergey Mikhailovich, Ochilov Akram Odilovich, Filipenko Alexander Alexandrovich	
"YASHIL" IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA TUZILISHI	53
Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ДРАЙВЕР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ РЫНКА ТРУДА И МОДЕРНИЗАЦИИ РАБОЧИХ МЕСТ В УЗБЕКИСТАНЕ	59
Зокирова Нодира Каландаровна	
KREATIV IQTISODIYOT VA UNING INDUSTRIYA TURLARINING NAZARIY MASALALARI	64
Mamayunus Pardaev, Obid Pardaev, Akram Ochilov	
EKOLOGIK OMILLARNI HISOBGA OLGAN HOLDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHDA ERISHISH	73
Saidov Muhammadali Hakimovich, Ochilov Akram Odilovich, Esanbekov Diyorbek Mirzabek o'g'li	
INNOVASION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI KOOPERASIYASINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	81
Raxmatulla Ergashev	
KARTOSHKKA MOSLANUVCHAN NAVLARI TURLI EKISH MUDDATLARI VA MULCHALASHLARDA HOSILDORLIGI HAMDA IQTISODIY SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	86
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Toshpulatova Surayyo Tulqin qizi, Ismayilov Alisher Isroilovich	
YASHIL IQTISODIYOT – INNOVATSION RIVOJLANISHNING KALITI	90
Mirzayev Kulmamat Djanakovich, Usmonov Murodjon Dusmurot o'g'li	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ» В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	93
Сайёра Насимовна Хамраева	
SABZAVOT (SHIRIN) MAKKAJO'XORI AJRATILGAN MOSLANUVCHAN NAV-DURAGAYLARINI ASOSIY VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI MUDDATLARDA YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	97
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Nurillaev Ilhom Xolbek o'g'li, Jabborov Botir Shukurovich	
ZAMONAVIY BOZOR MUNOSABATLARIDA SAVDONI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY JIHATLARI	101
Ivatov Irisbek	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	105
Yadgarov Akram Akbarovich, Abdiyeva Flora Botir qizi	
GREEN ECONOMY: GLOBAL PERSPECTIVE AND UZBEKISTAN'S PATH	110
Dilmurod Mirza-Akhmedovich Rasulev, Dildorakhon Ulugbek kizi Shomuradova	
OLIY TA'LIM XIZMATLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TARG'IB QILISH BO'YICHA XORIJ TAJRIBASI	113
Musayev Bekjon Shukurillayevich	



TURIZM INDUSTRIYASINI BARQAROR STRATEGIK RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN USULLAR TAHLILI	116
Turdibekov Xasan Ibragimovich	
ЗЕЛЁНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ И ФАКТОРЫ ЕГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	120
Орипов Ильхом Абдуллаевич	
Перспективы развития цифровой трансформации в Республике Узбекистан	128
Мусабеков Джорабек Хакимджанович, Воронин Сергей Александрович	
YASHIL IQTISODIYOT – BARQAROR RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	133
G.Erkayeva	
Barqaror ish o'rinlarini yaratishda yashil iqtisodiyotning o'rni	138
Qo'chqorov G'aybulla Fayzullayevich, Qo'ziyeva Shaxnoza Bozor qizi	
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ	141
Фазлитдин Бахадирович Аминов	
RESPUBLIKADA EKOLOGIK TOZA MAHSULOT YETISHTIRISH ASOSIDA ELEKTRON SAVDONI RIVOJLANTIRISH.....	145
Q. J. Mirzayev, F. F. Ulug'murodov	
Qoraqalpog'istonda sanoatni restruktizatsiyalash va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish: muammolar, istiqbollar va statistik tahlillar	150
Abipova Gulmira Salavatdinovna	
CHORVACHILIK XO'JALIKLARINI RIVOJLANTIRISHDA AGLOMERATSIYANING AHAMIYATI.....	153
Xusainov Oybek Jabborovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINING KOMPANIYA UCHUN AHAMIYATI.....	156
Ergashev Toxir Kurbanovich, Toxirova Nigora Zokirjon qizi	
CHORVACHILIK KLASSTERLARI VA AGLOMERATSION RIVOJLANISH: O'ZARO TA'SIR VA SYNERGIYALAR	161
Xusainov Oybek Jabborovich 161	
HUDUDLARNING INNOVATSIYON SALOHİYATINI VAHOLASH	165
J.A. Ismatullayev, A. Do'lanov	
СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	171
Нафасов Тохиржон, Г. П. Эркаева	
Mamlakatimizda ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan islohotlar.....	174
Djurayev Olimjon Narkulovich	
USE OF THE ADVANCED EXPERIENCE OF FOREIGN COUNTRIES OF FARMING AND HOUSEHOLDS....	178
Ochilova Nargiza Akramovna	
SHAHAR AGLOMERATSIYALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	181
Xidayatova Nigora Shorakibovna	
IQTISODIY O'SISHDA MEHNAT MIGRATSIYASINING AHAMIYATI.....	184
Djurayev Olimjon Narkulovich, Saidakbarov Jamshid Ne'matullo o'g'li	
TURIZMNIDA RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH	189
Qosimov Jahongir	
РЫНОК ГОСТИНИЧНЫХ УСЛУГ В ТУРИЗМЕ В УСЛОВИЯХ ДИВЕРСИФИКАЦИИ И ДЕМОКРАТИЗАЦИИ ГОСТИНИЧНОЙ ИНДУСТРИИ.....	192
Ташмаматов Садирдин Нажмиддинович	
O'zbekistonda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlar malakasini oshirishda dual ta'limdan foydalanishni boshqarish.....	196
Ochilov Akram Odilovich, Xamidova Mo'tabarxon Abdumalik qizi	
МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTLARIDA AUTSORSING XIZMATLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	201
Nasiba Ergasheva	
KORXONALARDA XODIMLARNI BOSHQARISHNING ASOSIY TAMOYILLARI	207
Djurayev Olimjon Narkulovich, Nurullayeva Vazira O'ktamovna	
ЗЕЛЁНЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ПЕРСПЕКТИВЫ И РИСКИ	211
Номазов Бахром Бобомурадович	



ИНТЕГРАЦИЯ ПРИНЦИПОВ ESG В ФИНАНСОВУЮ СФЕРУ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	215
Алимова Азиза Шерзатовна	
THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON MANAGEMENT	219
Ergashev Tokhir Kurbanovich, Tohirova Nigora Zokirjon kizi	
O‘ZBEKISTONNING “YASHIL IQTISODIYOT STRATEGIYASI”NI AMALGA OSHIRISHNING ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI	224
Ergasheva Nazira Muratovna, Soyibov Mirjon Bekjonovich	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ УСЛУГ СОЦИАЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ, ВЛИЯЮЩИХ НА ПОВЫШЕНИЕ УРОВНЯ И КАЧЕСТВА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	227
Алимова Муниса Юлчиевна	
РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБУВНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЕЁ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗНАЧИМОСТИ.....	232
Расулов Нозимжон Набиджонович	
AGLOMERATSIYA VA IQTISODIY O‘SISH: SABAB–OQIBAT ALOQASI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	236
Xidoyatova Nigora Shorakibovna	
KORXONALARNING SOLIQ IDORALARIDA HISOBGA OLINISHIDAN HOSIL BO‘LGAN ORTIQCHA TO‘LOVLARINI VOJXONA TO‘LOVLARIDA HISOBGA OLISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	239
Boykabilov Bahodir Mustafaevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLARGA INVESTITSIYALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	242
Egamberdiyeva Salima Rayimovna, Bozorov Yashnarbek Xayrulla o‘g‘li	
ORGANIK QISHLOQ XO‘JALIGIDA “IXTISOSLASHTIRILGAN AGROKOOPERATIV” TASHKIL ETISH ORQALI TA‘MINOT ZANJIRI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	248
Amirqulov Shuxrat Olimovich	
MAMLAKATIMIZDA OLIY TA‘LIM MUASSASALARINING MOLIYAVIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHI UCHUN ZAMONAVIY HUQUQIY ASOSLARI.....	254
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
TURIZMNING MADANIY-TARIXIY RESURSLARI: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA TAMOYILLAR	258
Ruzmanov Dilshod Usmanovich	
BARQAROR TURIZM DESTINATSIYALARINING SIG‘IMINI BAHOLASH METODIKASI.....	262
Ibroximov Nodirbek Xasanovich	
ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ КАК ОСНОВА ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ	266
Хусаинов Равшан Рахимович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЙ МАРКЕТИНГ И ПОВЕДЕНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЕЙ.....	272
Раимова Муборак Джураевна	
“YASHIL IQTISODIYOT”NING ASOSIY XUSUSIYATLARI	276
Djumayev Asqar Xaydarovich	
RAQAMLI MARKETINGNING ISTE‘MOLCHI XULQ-ATVORIGA TA‘SIRI.....	281
Raimova Muborak Jurayevna, Dilmurodov O‘tkir	
HUDUDNING IJTIMOIY-IQTISODIY SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	287
SH.A. Buriyev	
SAVDO XIZMATLARINING ASOSIY FAOLIYAT KO‘RSATKICHLARI TIZIMINI BAHOLASH.....	291
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
YASHIL IQTISODIYOT VA GLOBAL IQLIM O‘ZGARISHI: YASHIL IQTISODIYOTNING IQLIM O‘ZGARISHINI YENGISHDAGI O‘RNI VA GLOBAL HAMKORLIK.....	295
Usmonov Murodjon Xolmurod o‘g‘li, Ulug‘bek Eshmaxmatov	
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ МЕХАНИЗМА НАЛОГОВОГО АДМИНИСТРИРОВАНИЯ НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	299
Абдулов Дамир Рустамович	
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH ISTIQBOLLARI	305
Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich, Boliyeva Baxora Farxodovna	



ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА: КОНЦЕПЦИИ, ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	308
Туляганова Шахноза Самукджановна	
O‘TA ERTAGI TARVUZNING HIMOYALANGAN JOYLAR UCHUN MOSLANUVCHAN NAV VA DURAGAYLARINI AJRATISH, ULARNI TURLI O‘G‘IT ME‘YORLARIDA HOSILDORLIGI VA IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	311
Ostonaqulov Toshtemir Eshimovich, Amirov Xamidulla Suyunovich, Umirova Durdona Muqum qizi	
ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПЛОДООВОЩНОЙ ОТРАСЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ	315
Уралов Элшод, Вельм М.В.	
DEVELOPMENT STRATEGY AS A MODEL OF PROGRESS IN HUMAN RESOURCE DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN.....	320
Abdiev Alimardon	
ОСОБЕННОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ СЕКТОРА ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ И РАЗВИТИЯ КАДРОВОГО ПОТЕНЦИАЛА.....	322
Мухаммадбобур Салимов	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHIGA TA‘SIR ETUVCHI OMILLAR.....	326
Suyunov Jabbor Mahmudovich	
“SALOHIYAT” TUSHUNCHASINING MAZMUNI VA IQTISODIY-IJTIMOY MOHIYATI.....	331
Zoirov G‘olibjon Toshtemir o‘g‘li	
DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	334
Salimov Muhammadbobur Qodir o‘g‘li	
O‘QUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	337
Tilakov Sherzod	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAMOYILLARI ASOSIDA BOSHQARUV SIFATINI OSHIRISHDA YASHIL IQTISODIYOTNING AHAMIYATI.....	340
Sattarov Umirzoq, Ro‘ziev Zafar Ikromovich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA O‘ZBEKISTONDA SANOAT XOM ASHYOLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TENDENSIYALARI.....	343
Xazratov Sarvar Ibragimovich	
YURTIMIZDA RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KADRLAR TAYYORLASHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	348
G‘aniyev Shaxzod Shuhrat o‘g‘li, O‘rinov Diyorbek Xolmo‘min o‘g‘li	
QASHQADARYO VILOYATI O‘QUV MARKAZLARI VA KURSLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	353
Tilakov Sherzod Akbarovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH SIFATI HAMDA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XODIMLARNI BOSHQARISH YO‘NALISHLARI.....	357
Ochilov Akram Odilovich, Ziyodullayeva Marjona Alisher qizi	
OMMAVIY TADBIRLAR YORDAMIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH: O‘ZBEKISTON VA XALQARO TAJRIBA.....	360
Ibragimov Sardorbek Xusanovich	
Анализ цифровой трансформации и её влияния на привлечение инвестиций в регионы Узбекистана.....	365
Рахмонова Дурдона Хасан кизи	
Korxonalar moliyaviy salohiyatini baholashning statistik tahlili.....	370
M.O. Musurmonova	
DIRECTIONS FOR IMPROVING THE FINANCIAL MANAGEMENT SYSTEM OF THE BANKING SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	377
Kadirov Lutfulla Khalimovich	
PROBLEMS OF EMPLOYMENT IN THE LABOR MARKET OF UZBEKISTAN AND STRATEGIC DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION	381
Sharopov Temirmalik Rustam o‘g‘li	



“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOYILLARI ORQALI QASHQADARYO VILOYATI SANOAT KOMPLEKSINI TAKOMILLASHTIRISH	385
U.Shukurov	
Foreign experiences in attracting investments in service industries	390
Hazratkulov Shahboz Boboqul oqli	
YASHIL IQTISODIYOTDA TA'LIMNING ROLI	394
Babayeva Lola Ibragimovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI UCHUN DAVLAT TOMONIDAN YARATILAYOTGAN IMKONIYATLAR.....	398
Xudoyorov Azizbek Avaz o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	404
Safarov Sh. S.	
IJTIMOIIY MENEJMENTDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	408
G'aniyev Shaxzod Shuhrat o'g'li, Davronova Farangiz	
«Государственный финансовый контроль: Казначейский контроль в бюджетном процессе и перспективы его развития».....	415
Файзуллаева Зилола Равшановна, Д.Х. Пулатов	
YANGI O'ZBEKISTONDA YASHIL RAQAMLI IQTISODIYOTGA O'TISHNING ASOSIY JIHATLARI.....	421
Urozoza Shaxlo Hasan qizi, Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH MASALALARI: XALQARO TAJRIBA VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	427
Safarov Shoxrux Sattor o'g'li	
PROSPECTS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF HUMAN RESOURCES IN UZBEKISTAN.....	431
Alimardonova Gulfizoda Alimardon kizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA KAPITAL QO'YILMALAR HISOBINI TO'G'RI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI	434
Egamberdiyeva Salima Rayimovna	



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yadgarov Akram Akbarovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Email: ayadgarov@tsue.uz

ORCID ID: 0000-0002-7692-8193

Abdiyeva Flora Botir qizi

Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Email: floraabdiyeva07@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0000-0002-2859-9508>

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini amalga oshirmoqda. Ushbu tadqiqotda mamlakatda yashil iqtisodiyotning joriy holati va rivojlanish istiqbollari statistik ma'lumotlar hamda xalqaro solishtirma tahlillar asosida o'rganildi. Maqolada qayta tiklanadigan energiya manbalarining ulushi, chiqindilarni qayta ishlash tizimlari, suv va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish ko'rsatkichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy to'siqlar (moliyaviy va texnologik) va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston uchun yashil o'tish strategiyasini shakllantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, ekologik toza texnologiyalar, chiqindilarni qayta ishlash, uglerod izi, aylanma iqtisodiyot, suv tejash, yashil energiya.

Abstract: The Republic of Uzbekistan is transitioning to a green economy to ensure sustainable development. This study examines the current state and development prospects of the green economy in Uzbekistan based on statistical data and international comparative analysis. The article analyzes the share of renewable energy sources, waste recycling systems, and the implementation of water-saving and energy-efficient technologies. It also identifies the main obstacles (financial and technological) and provides proposals for overcoming them. The findings of the study will contribute to shaping Uzbekistan's green transition strategy.

Key words: green economy, sustainable development, renewable energy, waste recycling, carbon footprint, circular economy, water saving, green energy.

Аннотация: Республика Узбекистан осуществляет переход к зелёной экономике для обеспечения устойчивого развития. В данном исследовании текущее состояние зелёной экономики и перспективы страны изучены на основе статистических данных и международного сравнительного анализа. В статье анализируются доля возобновляемых источников энергии, системы переработки отходов, показатели внедрения водосберегающих и энергосберегающих технологий. Также разработаны предложения по устранению основных препятствий (финансовых и технологических) в развитии зелёной экономики. Результаты исследования помогут сформировать стратегию зелёного перехода для Узбекистана.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, возобновляемая энергия, переработка отходов, углеродный след, циркулярная экономика, водосбережение, зелёная энергия.

KIRISH

Yashil iqtisodiyot – tabiiy resurslarni tejovchi, ekologik toza texnologiyalarga asoslangan va ijtimoiy jabhalarni o'zida qamrab oluvchi iqtisodiy model hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi qurg'oqchil iqlimi va resurslarga bog'liq iqtisodiyoti tufayli yashil o'tish jarayonida qator jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda. Shu sababli, mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Mazkur yo'nalishda bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasi", "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasini atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi, "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun, "2030-yilgacha O'zbekiston



Respublikasining ‘yashil’ iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi qaror” va “Milliy ‘yashil’ iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi qaror” shular jumlasidandir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, tadbirkorlar mamlakatimiz qudratining muhim tayanchi hisoblanadi. Ularning soni hozirda 1,5 million nafarga yetgan bo‘lib, 2030-yilgacha ularning sonini 3 million nafarga yetkazish rejalashtirilgan. Tadbirkorlarning yashil iqtisodiyot sohasida faol ishtirok etishi va tashabbus bilan chiqishi natijasida belgilangan katta maqsadlarga erishish mumkin bo‘ladi [1].

Yuqorida qayd etilgan qonun va qarorlarda 2030-yilgacha O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha bir qator strategik maqsadlarga erishish belgilangan. Jumladan, Parij kelishuviga muvofiq, issiqxona gazlarining yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan solishtirma ajratmalarini 2010-yilgi darajadan 35 foizga qisqartirish majburiyati yuklatilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda mahsulotlar qayta tiklanuvchi energiya manbalari hisobidan va ekologik jihatdan toza texnologiyalar yordamida ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi hamda bu bilan bog‘liq barcha jarayonlarni kuzatib boorish imkonini beruvchi “yashil sertifikatlar” tizimi joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12- maydagi PQ-156-sonli “Yashil energiya” sertifikatlari tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Energetika vazirligi va “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyatining elektr energiyasining qayta tiklanuvchi manbalardan foydalangan holda ishlab chiqarilganini tasdiqlovchi “yashil energiya” sertifikatlari tizimini bosqichma-bosqich:

2023-yil 1-iyuldan boshlab – “O‘zbekgidroenergo” aksiyadorlik jamiyati tizimidagi gidroelektr stansiyalarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun;

2023-yil 1-oktabrdan boshlab – quyosh, shamol va gidroelektr stansiyalarida hamda qayta tiklanuvchi boshqa energiya manbalaridan foydalangan holda ishlab chiqarilgan elektr energiyasi uchun joriy etish belgilandi.

1. Qayta tiklanadigan energiya sohasidagi ko‘rsatkichlar 2023-yil holatiga ko‘ra, qayta tiklanadigan energiya (QTE) quyidagicha taqsimlangan [2]:

- Quyosh energiyasi: 1,200 MVt (2023), 2020-yilga nisbatan 4 baravar o‘shish;
- Shamol energiyasi: 500 MVt, dastlabki loyihalar bosqichida;
- Gidroenergetika: 2,100 MVt, asosan Chirchiq, Narin daryolari;
- Biogaz va boshqa alternativ manbalar: 100 MVt;
- Umumiy energiya ishlab chiqarishdagi ulushi: 18%, 2030-yilga mo‘ljallangan maqsad 40%;
- Investitsiyalar: 2021-2023-yillarda QTE loyihalariga \$3.2 mlrd sarmoya kiritilgan (asosan Xitoy, BMT, Yevropa tashkilotlari) [3].

2. Chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash 2023-yil holatiga ko‘ra shahar chiqindilari:

- Yillik chiqindi hajmi: 7 million tonna;
- Qayta ishlanish darajasi: 15%, 2020-yilga nisbatan 5% o‘shish;
- Plastik qayta ishlash: 30%, Toshkent va Farg‘ona viloyatlarida yangi zavodlar qurilmoqda;

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, respublikamizda 2024-yilning o‘tgan 6 oyi davomida 292 dan ortiq chiqindini qayta ishlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tomonidan 5,2 mln tonna maishiy chiqindilarning 270 ming tonnasi qayta ishlanib, qayta ishlash darajasi 5,2 foizga yetkazildi.

Yurtimizda chiqindilarni ikkilamchi qayta ishlab, ulardan boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarayotgan korxonalar soni ham ortib bormoqda. Shulardan biri “Toshkent plast polimer” korxonasidir. Bu yerda har kuni 50 tonnadan ziyod chiqindilar qabul qilinadi va qayta ishlanadi.

Korxonada chiqindilardan 15 turdagi mahsulotlar tayyorlanadi. Xususan, 30 turdagi plastik yashiklar, yevro va standart poddonlar, gofrokorbka mahsulotlari, chiqindi qutilari, avtomobil bampirlari, plastik chelaklar ishlab chiqariladi[4].

3. Suv resurslaridan samarali foydalanish.

Qishloq xo‘jaligida suv tejash:


Daryolar oqimining umumiy yalpi nazariy gidroenergetika salohiyati yiliga 88,5 mlrd.kVt-soatni tashkil etadi. Respublikaning texnik gidroenergetika salohiyati yiliga 27,4 mlrd kVt-soatga teng. Hozir shundan taxminan 24% foydalanilmoqda[5].



O'zbekiston Respublikasida gidro elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiya

(yanvar-sentabr, mln kVts)

O'zbekiston Respublikasida 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida yirik gidro elektr stansiyalari tomonidan 6 410,9 mln kVts elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida gidro elektr stansiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan elektr energiya.

Piskom daryosi respublika bo'yicha o'rganilgan suv oqimlarining eng katta salohiyatiga, ya'ni 1 324 MVt quvvatga ega. Bu O'zbekistondagi mavjud gidroenergetika resurslarining 45,3 foizi degani. Qolgan yirik suv oqimlari bular: To'palang daryosi (292 MVt, 10,2%), irmoqlari bo'lgan Chatqol daryosi (243 MVt, 8,3%), Sangardak daryosi (149 MVt, 5,1%), Ko'ksuv daryosi (96 MVt, 3,3%), Ohangaron daryosi (73 MVt, 2,5%), Ugam va Halqajar daryolari (67 MVt, 2,3%) va boshqa kichik suv oqimlari (672 MVt, 23%)[6].

Iqtisodiyot tarmoqlarida foydalaniladigan suv resurslarining ko'p yillik o'rtacha hajmi 51 mlrd. m kub ni tashkil etadi. Buning 21,5% i O'zbekiston hududlarida, 78,5% i qo'shni davlatlar hududida shakllanadigan suv resurslaridir. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryodan 31,6 mlrd. kub metr (61%), ichki kichik daryo va soylardan 17,2 mlrd. kub metr (35%), yerosti suv zaxiralaridan 0,5 mlrd. kub metr (1%) hamda kollektor va drenaj tizimlaridan 1,7 mlrd. kub metr (3%) suv olinadi va ular asosiy suv resurslarini tashkil qiladi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida suv resurslarini olish manbalari.



Mutaxassislarning fikriga ko'ra, O'zbekistonda yaqin kelajakda suv tanqisligi 7 mlrd. kub metr, 2050 yillarga borib, 12-13 mlrd. kub metr bo'lishi kutilayotganini inobatga olsak, bu holatda suvni tejashning ahamiyati yanada ortadi [7].


4. Uglarod chiqindilari va ekologik oqibatlar

XXI-asrda issiqxona gazlari (shu jumladan CO₂) chiqindilarining o'sish sur'ati kamaydi. Biroq, insoniyat yillik issiqxona gazlari chiqindilarining maksimal cho'qqisiga deyarli erishganini hisobga olish kerak – bu, o'z navbatida, atmosferaga issiqxona gazlari chiqindilari emissiyasining o'sish sur'atlarini sekinlashtirishga yordam beradi. Shunday qilib, 2000-2021 yillarning o'zida issiqxona gazlarining emissiyasi CO₂-ekvda 41,3 mlrd tonnadan 54,6 mlrd tonnaga – 1,3 barobarga o'sdi (CO₂ emissiyasi 25,5 mlrd tonnadan 37,1 mlrd tonnaga – 1,5 barobar o'sish).

O'zbekistonda 2010-2021 yillar davomida issiqxona gazlari emissiyasi (IG) hajmi CO₂-ekvda 1,2 barobarga, 176,5 mln tonnadan 207,9 mln tonnagacha o'sdi. Shu bilan birga aytish joizki, 2013-2015 va 2017 yillarda mamlakatimizda IG emissiyasining pasayishi kuzatilgan. Shu jumladan, xususan 2015 yilda IG emissiyasi 2012 yilga nisbatan CO₂-ekvda 14,1 mln tonnaga kamaygan.

Issiqxona gazlarining turlari (CO₂, metan, azot oksidi) bo'yicha tarkibida 2010-2021 yillarda karbonat anhidrid emissiyasi (CO₂) ulushi eng katta bo'lib, 2010 yilda 59,0%ni va 2021 yilda 58,5%ni tashkil qiladi. Keyingi o'rinda metan emissiyasi bo'lib, uning ulushi 2021 yilda 34,4%ni tashkil qildi (2010 yilda 35,2% bo'lgan).

Issiqxona gazlari emissiyasi tarkibida eng kichik ulush azot oksidiga to'g'ri keladi – 2021 yilda 7,1%. Shuni ta'kidlash kerakki, 2010 yilga nisbatan azot oksidi chiqindilarining ulushi 5,8 foizdan 1,3 foiz punktiga oshdi.



Manba: Our World in Data ma'lumotlar bazasi asosida hisoblangan

3-rasm. Issiqxona gazlarining turlari bo'yicha tarkibi.

O'z navbatida, sohalar bo'yicha issiqxona gazlari emissiyasining tarkibi shuni ko'rsatadiki, barcha emissiyaning 3/4 qismi (2010 yilda 79,0% va 2019 yilda 76,4%) 4 ta sohaga to'g'ri keladi. Bular elektroenergiya va isitish (2019 yilda SO₂-ekvda 56,0 mln tonna), qishloq xo'jaligi (CO₂-ekvda 36,6 mln tonna) sohalari, binolar (CO₂-ekvda 26,5 mln tonna) va nazorat qilib bo'lmaydigan emissiya (CO₂-ekvda 25,5 mln tonna) lardir [8].

O'zbekiston qayta tiklanadigan energiya manbalarini jadal rivojlantirish va uglarodsiz energiya sektoriga o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Qabul qilingan hujjatlarga ko'ra, 2030-yilga kelib issiqxona gazlari chiqindilarini 2010-yilga nisbatan 35 foizga qisqartirish, jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtga oshirish va ularning umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushini 30%dan ortiqroqqa yetkazish, sanoatda energiya samaradorligini kamida 20% ga oshirish rejalashtirilgan.

Mamlakatda iqtisodiyotni transformatsiya qilish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha maqsadlarni belgilovchi bir qator hujjatlar qabul qilindi:

1. 2019-2030 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturi;



3. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va tarmoqlarda energiya tejashni ta’minlash konsepsiyasi;
4. O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “yashil” o‘sishni ta’minlash bo‘yicha harakatlar rejasi shular jumlasidandir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Quyosh energiyasidan samarali foydalanishni rag‘batlantirish uchun kichik biznes va fermer xo‘jaliklariga davlat tomonidan subsidiyalar berish va banklar tomonidan past foizli kreditlar taqdim etish zarur. “Yashil tarif” (feed-in tariff) tizimini joriy etish orqali xususiy ishlab chiqaruvchilarga ortiqcha energiyani sotish imkoniyati yaratish taklif etiladi. Shamol energiyasini rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatlarida shamol fermalari uchun soliq imtiyozlarini joriy qilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xalqaro investorlar bilan loyihalarni yo‘lga qo‘yish uchun investitsion jozibadorlikni oshirish tavsiya qilinadi.

Chiqindilarni kamaytirish bo‘yicha quyidagi takliflar ilgari surildi: plastik va qurilish chiqindilarini qayta ishlash, har bir tuman markazida zamonaviy qayta ishlash zavodlarini qurish, chiqindilarni ajratib yig‘uvchi aholiga soliq imtiyozlarini taqdim etish, chiqindilarni yig‘uvchi maxsus transport vositalarini chiqindi turlariga ko‘ra saralash tizimini yaratish, aholining ekologik madaniyatini oshirish maqsadida maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va oliy ta‘lim muassasalarida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, organik chiqindilardan kompost ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va fermer xo‘jaliklariga bepul kompost tarqatish dasturini joriy etish.

Suv samaradorligini oshirish bo‘yicha ham bir qator takliflar ishlab chiqildi. Jumladan, tomchilab sug‘orish tizimini kengaytirish va paxta hamda g‘alla ekinlarida tomchilab sug‘orish maydonlarini 2030-yilga qadar 500 ming gektarga yetkazish maqsad qilingan. Tomchilatib sug‘orish uskunalarini import qiluvchi fermerlarga 50 foizgacha subsidiya berish, aqlli sug‘orish tizimlarini (Smart Irrigation) joriy etish, IoT texnologiyalari yordamida tuproq namligini monitoring qilish kabi chora-tadbirlar rejalashtirilmoqda. Shuningdek, shahar suv tarmoqlarini modernizatsiya qilish, xususan, Toshkent shahrida suv yo‘qotilishini kamaytirish (hozirda 40 foiz suv yo‘qolmoqda) va yomg‘ir suvlaridan foydalanish uchun maxsus kanalizatsiya tizimlarini ishlab chiqish zarur.

Uglerod neytralligini ta’minlash strategiyasi bo‘yicha esa quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinmoqda: iqtisodiyot tarmoqlarida chiqindilarni kamaytirish salohiyatini aniqlash va har bir tarmoq uchun maqsadli parametrlarni belgilash, ishlab chiqarishni karbonizatsiyalash va aholining turmush sharoitini yaxshilash choralarini ishlab chiqish; “yashil” texnologiyalarga o‘tish variantlarini baholash va ularning afzalliklari hamda kamchiliklarini taqqoslash; “yashil” rivojlanishga o‘tish jarayonida energiya va oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshishiga yo‘l qo‘ymaslik va davlatning ijtimoiy majburiyatlarini saqlash; hududlarning iqlim xususiyatlarini inobatga olgan holda transformatsiya jarayonini boshqarish; “yashil” moliyalashtirish manbalarini aniqlash va xalqaro “yashil” kredit liniyalarini jalb qilish.

Xulosa o‘rnida aytilish mumkinki, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni asta-sekin, ammo izchil rivojlanmoqda. Eng yaxshi rivojlanayotgan sohalar – quyosh energiyasi va chiqindilarni qayta ishlash yo‘nalishlaridir. Biroq, texnologik cheklovlar, moliyaviy resurslarning yetishmasligi va qonunchilikdagi ayrim kamchiliklar asosiy to‘siqlar bo‘lib qolmoqda. 2030-yilga mo‘ljallangan maqsadlarga erishish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va yashil texnologiyalarni mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prezident 2025-yilni “Atrof-muhitni asrash va ‘yashil’ iqtisodiyot” yili deb nomlaganiga izoh berdi. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/11/21/yil-nomi/>
2. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
3. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi sayti ma’lumotlari. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/27794>
4. G.J. Allaeva. Potentsial ispolzovaniya vozobnovlyaemyx istochnikov energii v Respublike Uzbekistan. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali, №4, iyul-avgust, 2016-yil.
5. Texnik jihatdan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan gidroenergetika potentsiali, O‘zbekiston Respublikasi. <https://uzenergyweek.com/ru/гидроэнергетика/>
6. Hududlarda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti sayti ma’lumotlari. https://imrs.uz/publications/articles-and-abstracts/water_resources
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti sayti ma’lumotlari. O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishishni baholash: vaziyat tahlili va ssenariylar. <https://imrs.uz/publications>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>